



RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'ZBEKISTON
ISTIQBOLIDAGI AHAMIYATI

Mamatov Abdivait Olimjon o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bugungi kunning eng dolzarb mavzusi raqamli iqtisodiyot haqida so'z olib borilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning belgilari, ko'rsatkichlari va uning baholanishi hamda YAIMdagi ulushi davlatlar misolida keltirilgan. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari bayon etilgan.*

Аннотация. *Данной статье рассказывается о цифровой экономике, которая сегодня является самой актуальной темой. Также на примере стран представлены признаки, показатели и их оценка цифровой экономики, а также ее доля в ВВП. Перспективы развития цифровой экономики в Узбекистане.*

Annotation. *This article is about the digital economy, which is the most hot topic today. The signs, indicators and assessment of the digital economy, as well as its share in GDP are also cited. The prospects for the development of the digital economy in Uzbekistan.*

Tayanch iboralar. *axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat, iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, yalpi ichki mahsulot, ulush, internet, atama, elektron bazalar.*

Ключевые слова. *информационные технологии, современные информационно-коммуникационные технологии, информационное общество, экономика, цифровая экономика, валовой внутренний продукт, доля, интернет, терминология, электронные базы данных.*

Keywords. *information technology, modern information and communication technologies, information society, economics, digital economy, electronics, gross domestic product, share, internet, terminology, electronic databases.*

Kirish. Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi. Dunyoda raqamli iqtisodiyot o'sishining sur'atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o'zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko'rishmoqda. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari yiliga 400 milliard AQSH dollaridan ko'prog' raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. Mazkur davlat yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko'prog'i bevosita internet va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq sohalarga to'g'ri keladi. 2025 yilgacha





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

AQSH sanoatni raqamlashtirishdan qo‘shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistikada (3,9 trln. dollar) yuqori bo‘lishi ta‘kidlanmoqda.[3]

Turli tadqiqotlar natijalari bo‘yicha raqamli iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi salmog‘i 4,5 foizdan 15,5 foizgachani tashkil etadi. Jahon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatning deyarli 40 foizi va blokcheyn texnologiyalari bilan bog‘liq patentlarning 75 foizi Amerika Qo‘shma Shtatlari va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Tadqiqot metodlari. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish imkoniyatlari iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash usullari yordamida o‘rganish orqali respublikamizda raqamli iqtisodiyotning mintaqaviy xususiyatlari aniqlanadi. Ushbu jarayonda erishilgan natijalarni xorij tajribalari bilan taqqoslash, istiqbolda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yo‘llarni tanlashdan iboratdir.


Adabiyotlar sharhi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XXI asrning 90 yillarida amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “Raqamli iqtisodiyot” atamasini amaliyotga kiritdi. Hozirgi kunda bu atamani butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar tomonidan - deyarli barcha qo‘llamoqda. Bu borada, birinchi bo‘lib 2016 yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma‘ruza e‘lon qildi. Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz tomonidan raqamli iqtisodiyot terminiga ta‘rif berilgan bo‘lib, jumladan, akademik S.S.G‘ulomovning fikricha “Raqamli biznes bu - jismoniy va raqamli dunyolarni birlashtiradigan yangi biznes-modellar paydo bo‘lishidir”.[4]

Natijalar va tahlillar. Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba‘zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. 2016 yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta “Raqamli dividendlar” mavzusida ma‘ruza e‘lon qildi

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta‘sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so‘nggi o‘n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko‘rish kifoya. Xususan, BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi ma‘lumotlarida qayd etilganidek, bu





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'rsatkich 2009 yilda 16 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilning oxiriga kelib 56 foizga yetgan.

2018 yil 18 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5598-sonli Farmoni e'lon qilindi. [2] Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq Farmonda elektron hukumatning davlat, aholi va biznesning samarali hamkorligini, shuningdek, jahonning raqamli makoniga integratsiyalashuvini ta'minlash bo'yicha yagona milliy tizim sifatidagi maqsadli ahamiyatini belgilash ko'zda tutilgan. Loyihalar bo'yicha yagona milliy distribyutorni tashkil etish orqali yaxlit jarayon (ishlab chiqish, loyihalashtirish, kelishish, tovarlar, ishlar, xizmatlar xarid qilish, shuningdek, ularni foydalanishga topshirishning yagona tizimi) barpo etiladi. Natijada mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashib boradi, investitsiya iqlimi va ishchanlik muhiti yaxshilanadi.

2018 yil 18 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5598-sonli Farmoni e'lon qilindi. [2] Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq Farmonda elektron hukumatning davlat, aholi va biznesning samarali hamkorligini, shuningdek, jahonning raqamli makoniga integratsiyalashuvini ta'minlash bo'yicha yagona milliy tizim sifatidagi maqsadli ahamiyatini belgilash ko'zda tutilgan. Loyihalar bo'yicha yagona milliy distribyutorni tashkil etish orqali yaxlit jarayon (ishlab chiqish, loyihalashtirish, kelishish, tovarlar, ishlar, xizmatlar xarid qilish, shuningdek, ularni foydalanishga topshirishning yagona tizimi) barpo etiladi. Natijada mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashib boradi, investitsiya iqlimi va ishchanlik muhiti yaxshilanadi.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.[1] “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari sifatida raqamli infratuzilmani, Elektron hukumatni, raqamli iqtisodiyotni, raqamli texnologiyalar milliy bozorini va axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Xulosa. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berish taklifi ilgari surilishi tom ma’noda O‘zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy burilish davri boshlanganini tasdiqladi. Shuningdek, mamlakatimiz prezidenti tomonidan raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish uchun olib borilayotgan islohotlar yurtimizni ravnaqi, iqtisodiyotimizni va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash qaratilgan bo‘lib, Iqtisodiyot, Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o‘ziga xos mas’uliyat va vazifalarni bajarishlari ham O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5598-sonli Farmoni // www.lex.uz

3. Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. – М., Эксмо. 2016. С.30





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

4. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019 y

5. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi // www.lex.uz

